

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Dilnoza Ganiyevna Atadjanova JANUBIY XORAZM VOHASIGA QADIMGI AHOLI MIGRATSIYASI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY MANBALAR TAHLILI.....	5
2. Anora Zayniddinovna Tog‘aeva TARIXIY ADABIYOTLARDA TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN SAVDO ALOQALARI XUSUSIDA.....	12
3. Sayfiddin Muxitdinovich Anarkulov SHAHAR MUHITIGA IJTIMOIIY-IQTISODIY MOSLASHUV JARAYONLARINING ANTROPOLOGIK TAHLILI.....	19
4. G‘ulom Masharipovich Djumamuratov, Muslima Maxmudovna Bazarova MARKAZIY OSIYO HUDUDI BO‘YLAB O‘ZBEK URUG‘LARINING JOYLASHUVI MANBALARDA.....	27
5. Farxodjon Odiljonovich Ismatullayev O‘ZBEKISTON–YEVROPA ITTIFOQI HAMKORLIGINING EVOLYUSIYASI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	32
6. Нигора Рахимджанова ЖАДИД НОШИРЧИЛИГИНИНГ МАНБАШУНОСЛИГИ.....	40
7. Axmedjon Shonazarovich Yusupov ILK SAK QABILALARI MADANIYATI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	49
8. Amirbek Tag‘bayev B.X. KARMISHEVA ASARLARIDA ANTROPONIMLAR MASALASI.....	55
9. Nodira Nabiyevna Safixodjayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA “MEHRIBONLIK” UYLARIDA YARATILGAN MODDIY- TEXNIK SHAROITLAR.....	61
10. Ozodaxon Botirjon qizi Abdunosirova, Ruxshona Akramjon qizi Abduvoidova UBAYDULLAXON DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA ME’MORCHILIK TARAQQIYOTI...69	69
11. Gulom Masharipovich Djumamuratov O‘ZBEK URUG‘LARI TARKIBIDAGI OROL O‘ZBEKLARI TAHLILI.....	74
12. Rabiyaon Mansurbekovna Ibragimova DING‘ILDJA DEHQONCHILIK VOHASI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARINING TARIXIY TAHLILI.....	80



Farhodjon Odiljonovich Ismatullayev,
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti,
tarix fanlari doktori, dotsent
Elektron manzil: farhod.ismatullayev@mail.ru

O'ZBEKISTON-YEVROPA ITTIFOQI HAMKORLIGINING EVOLYUSIYASI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

For citation: Farhodjon O. Ismatullayev. EVOLUTION AND CONTEMPORARY DEVELOPMENT TRENDS OF UZBEKISTAN-EUROPEAN UNION COOPERATION. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 6.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807263>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yevropa Ittifoqining xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, uning O'zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Maqolada Yevropa integratsiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqilgan hamda integratsiya jarayonlarining siyosiy, iqtisodiy va institutsional jihatlarini yoritilgan. Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida Yevropa Ittifoqining global ta'siri baholanib, uning Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston bilan olib borayotgan hamkorlik siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. A'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib, ushbu tajribaning O'zbekistonning xalqaro hamkorlik aloqalarini takomillashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Ittifoqning jahon siyosiy va iqtisodiy tizimidagi roli hamda O'zbekiston-Yevropa Ittifoqi munosabatlarining bugungi holati va istiqbollari ochib berilgan. Maqolada Yevropa integratsiyasining zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish istiqbollari ko'rsatilib, ularning O'zbekiston tashqi siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri baholangan. Muallif tomonidan bildirilgan xulosalar O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan o'zaro manfaatli hamkorligini chuqurlashtirish hamda mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Yevropa Ittifoqi, integratsiya, xalqaro munosabatlar, globallashtirish, hamkorlik, a'zo davlatlar, siyosiy jarayonlar, iqtisodiy rivojlanish, institutsional tizim, tashqi siyosat, mintaqaviy integratsiya, boshqaruv, geosiyosat, barqaror taraqqiyot, xalqaro tashkilotlar.

Исмадуллаев Фарходжон Одилжонович,
Национальный педагогический университет Узбекистана,
доктор исторических наук, доцент
Электрон почта: farhod.ismatullayev@mail.ru

ЭВОЛЮЦИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ЕВРОПЕЙСКИМ СОЮЗОМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль и значение Европейского союза в системе международных отношений, а также его роль в развитии сотрудничества с Узбекистаном. В статье рассматриваются этапы формирования и развития европейской интеграции, а также освещаются политические, экономические и институциональные аспекты интеграционных процессов. На основе научных взглядов зарубежных учёных оценивается глобальное влияние Европейского союза и анализируются приоритетные направления его сотрудничества со странами Центральной Азии, в частности с Узбекистаном. Исследуются особенности механизмов сотрудничества между государствами-членами и раскрывается их значение для совершенствования международного сотрудничества Узбекистана. Также раскрывается роль Союза в мировой политической и экономической системе, а также современное состояние и перспективы отношений между Узбекистаном и Европейским союзом. В статье освещаются современные тенденции европейской интеграции и перспективы её развития, а также оценивается их влияние на внешнюю политику и социально-экономическое развитие Узбекистана. Выводы автора служат научной основой для углубления взаимовыгодного сотрудничества Узбекистана с Европейским союзом и обогащают научные исследования в данной области.

Ключевые слова: Европейский союз, интеграция, международные отношения, глобализация, сотрудничество, государства-члены, политические процессы, экономическое развитие, институциональная система, внешняя политика, региональная интеграция, управление, геополитика, устойчивое развитие, международные организации.

Farxodjon O. Ismatullayev,

National Pedagogical University of Uzbekistan,
Doctor of Sciences in History, Associate Professor
e-mail: farhod.ismatullayev@mail.ru

**EVOLUTION AND CONTEMPORARY DEVELOPMENT TRENDS OF
UZBEKISTAN–EUROPEAN UNION COOPERATION**

ABSTRACT

This article analyzes the role and significance of the European Union in the system of international relations, as well as its role in the development of cooperation with Uzbekistan. The article examines the stages of formation and development of European integration and highlights the political, economic, and institutional aspects of integration processes. Based on the scholarly views of foreign researchers, the global influence of the European Union is assessed, and the priority directions of its cooperation with Central Asian countries, particularly Uzbekistan, are analyzed. The specific features of cooperation mechanisms among member states are studied, revealing their importance for improving Uzbekistan's international cooperation. The role of the Union in the global political and economic system is also explored, along with the current state and prospects of relations between Uzbekistan and the European Union. The article highlights contemporary trends in European integration and its development prospects, as well as assesses their impact on Uzbekistan's foreign policy and socio-economic development. The author's conclusions provide a scientific basis for deepening mutually beneficial cooperation between Uzbekistan and the European Union and contribute to academic research in this field.

Index Terms: European Union, integration, international relations, globalization, cooperation, member states, political processes, economic development, institutional system, foreign policy, regional integration, governance, geopolitics, sustainable development, international organizations.

1. Dolzarbligi:

Yevropa Ittifoqi qariyb yetmish yil davomida shakllanib va takomillashib kelayotgan o'ziga xos integratsion birlashma hisoblanadi. Ushbu tashkilotning boshqa xalqaro tuzilmalardan asosiy

farqi uning iqtisodiy, siyosiy va huquqiy integratsiya sohasida erishgan yuqori natijalari bilan belgilanadi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar hududida umumiy bojxona makoni, yagona ichki bozor, umumiy valyuta tizimi, ta'lim va ilmiy tadqiqot sohasida yagona standartlar hamda erkin harakatlanish tamoyillari samarali amal qilmoqda. Bu esa uni jahondagi eng muvaffaqiyatli integratsion modellardan biri sifatida namoyon etmoqda.

Yevropa Ittifoqi jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo munosabatlarining muhim ishtirokchilaridan biri sifatida O'zbekiston bilan ham izchil va kengayib borayotgan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Ayniqsa, O'zbekistonning ochiq tashqi siyosat strategiyasi doirasida Yevropa Ittifoqi bilan siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy aloqalar va investitsiyaviy hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, Ittifoq o'z tashqi siyosatida demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi va barqaror rivojlanish kabi tamoyillarni ilgari suradi. Ilmiy adabiyotlarda bu holat Yevropa Ittifoqining «normativ kuch» sifatidagi roli bilan izohlanadi.

Hozirgi geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida Yevropa Ittifoqi energiya xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot, yashil energetika va global ta'minot zanjirlarini diversifikatsiya qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston ham ushbu yo'nalishlarda Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni faol rivojlantirib kelmoqda. Jumladan, yashil iqtisodiyotga o'tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, transport-kommunikatsiya loyihalari hamda raqamli transformatsiya sohalarida qo'shma tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bu esa O'zbekistonning mintaqaviy va global integratsiya jarayonlaridagi o'rnini yanada mustahkamlamoqda.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston bilan qariyb o'ttiz yildan buyon hamkorlik munosabatlarini rivojlantirib kelmoqda. Ayniqsa, 2019 yilda qabul qilingan Markaziy Osiyo bo'yicha strategiya doirasida O'zbekiston bilan aloqalar yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Ushbu hujjat asosida barqaror taraqqiyot, iqtisodiy modernizatsiya, ta'lim, ekologiya va transport bog'liqligi sohalarida hamkorlikni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, so'nggi yillarda Yevropa Ittifoqining Global Gateway tashabbusi doirasida O'zbekiston bilan infratuzilma, energetika, raqamli aloqalar va logistika sohalarida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan yangi mexanizmlar shakllanmoqda. Bu esa mamlakatning transport-logistika salohiyatini oshirish va Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Ushbu maqola umume'tirof etilgan ilmiy-tadqiqot usullari — tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, izchillik, tahlil va umumlashtirish hamda xolislik prinsiplari asosida yoritilgan. Unda Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan diplomatik-siyosiy faoliyati va mintaqaga oid yangi strategiyasining shakllanishi hamda qabul qilinishi jarayonining ayrim jihatlari tahlil etilgan.

So'nggi yillarda Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilib, ularda transformatsiya jarayonlari kuzatilmoqda. Xususan, tomonlar o'rtasida 2025 yil 24 oktyabrda imzolangan “Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik bitimi” ikki tomonlama munosabatlarning institutsional va huquqiy asoslarini mustahkamlab, hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi. Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi, rivojlanish dinamikasi hamda ularning evolyusion xususiyatlari qator tarixchi va siyosatshunos olimlar tomonidan turli jihatlarida tadqiq etilgan.

Ana shunday tadqiqotlar sirasiga O'zbekistonlik olim va ekspertlaridan V.Paramonov, A.Strokov, S.Alschen, Z.Abduganieva, M. Raximovlar[2] ishlarini ham kiritish mumkin. Xususan, V Paramonovning ilmiy maqolalari Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalariga bag'ishlangan[1].

Shu bilan birga, olim E.Nuriddinovning ilmiy tadqiqotlarida ham Yevropa Ittifoqi va unga a'zo mamlakatlar bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar yo'nalishlardagi hamkorlik aloqalarini rivojlanish jarayonlariga katta urg'u berilgan[3]. Muallif K. Xidirov esa, o'zining maqolalarida asosiy e'tiborni Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarining tobora kengayib, hamkorlikdan strategik sheriklikka aylanish jarayonlarini yoritishga qaratgan[2].

Ushbu masalaga xorijlik olimlar, jumladan, Mazkur masala xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham keng o'rganilgan bo'lib, uning turli nazariy va amaliy jihatlari ilmiy tahlil qilingan. Xususan, J.

Makkormik, A. Morev va S. Xiks kabi olimlar o'z tadqiqotlarida Yevropa Ittifoqining xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va ta'sir doirasining kengayishi, integratsiya jarayonlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi hamda uning institutsional xususiyatlarini chuqur tahlil qilganlar. Ularning ilmiy ishlarida Yevropa integratsiyasining evolyusion taraqqiyoti, a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari va Ittifoqning global siyosiy-iqtisodiy jarayonlardagi roli muhim tadqiqot ob'ekti sifatida yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Shu o'rinda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini o'rnatilishi va rivojlanishini hukumat va davlat siyosatidagi keskin o'zgarishlar va islohotlarga tayanib ikki davrga ajratish mumkin. Bunda birinchi davr ilk istiqlol ya'ni 1991 yildan toki 2016 yilning oxirigacha bo'lgan ya'ni O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov mamlakatga rahbarlik qilgan davrni o'z ichiga oladi. Albatta, bu davrda xalqaro maydonda O'zbekiston yangi mustaqil davlat sifatida tanildi, yirik xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Va qisqa davrda o'zining suveren davlat sifatida tashqi siyosati strategiyasini, tamoyillar va ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqdi. Bu jarayon O'zbekiston Respublikasi bosh qomusi bo'lgan Konstitutsiyada ham mustahkamlab qo'yildi. Bundan tashqari, tashqi munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslari shakllantirilib, O'zbekiston jahonda o'z o'rniga ega bo'ldi.

Ikkinchi davr esa, 2016 yil 4 dekabrda Prezidentlikka saylangan Shavkat Mirziyoyev boshlab bergan jahon uchun ochiqlik, pragmatik va konstruktiv amaliy tashqi siyosati bilan boshlangan Yangi O'zbekistondagi o'zgarishlar va islohotlar bosqichi sifatida belgilanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishda, yuqorida keltirilgan har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Agar birinchi bosqichga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish uchun ikki tomonlama maxsus qo'mita tashkil etildi[1]. Ushbu qo'mita 1994-1996 yillar davomida O'zbekistondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni chuqur va atroflicha o'rganib chiqdi. Shundan so'ng, 1996 yilda qo'mita tomonidan ijobiy xulosa berildi va ikki tomon o'rtasida hamkorlik shartnomasini o'rnatish uchun keng imkoniyatlar ochildi[2].

Uzoq tayyorgarlik va muzokara jarayonlaridan so'ng, 1996 yil 21 iyunida Florensiyaning (Italiya) "Forteza da Basso" qal'asida Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va hukumat rahbarlarining uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Hujjatni O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov va Yevropa Ittifoqi Kengashining amaldagi raisi bo'lgan Italiya Vazirlar Kengashi raisi Romano Prodi, shuningdek, Yevropa Ittifoqiga a'zo 15 davlatning tashqi ishlar vazirlari imzoladilar[3]. Shundan so'ng, qabul qilingan shartnomaning asosiy qoidalarini izchil va samarali amalga oshirish uchun uning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda zarur institutsional tuzilmalarni shakllantirish borasida muhim qadamlar tashlandi. Xususan, 1999 yil 3 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hukumatining kompleks dasturi to'g'risida" Qaror qabul qildi. Yevropa Ittifoqi tomonidan shartnoma qoidalarining bajarilishini nazorat qiluvchi asosiy organ O'zbekiston Respublikasi hukumati vakillaridan iborat hamkorlik Kengashi va hamkorlik qo'mitasi tashkil etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi parlamenti va Yevropa parlamenti a'zolari bilan uchrashish va fikr almashish uchun Forum bo'lgan parlamentlararo hamkorlik qo'mitasi ham tashkil etildi. Iqtisodiy hamkorlikka oid turli masalalarni ekspertlar darajasida muhokama qilish uchun savdo va investitsiyalar bo'yicha "O'zbekiston-YeI" kichik qo'mitasi tuzildi[4]. Shunday qilib, O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarning birinchi bosqichida, hamkorlik aloqalarni olib borish uchun asosiy huquqiy maydon yaratildi va tegishli mexanizmlar ishlab chiqildi.

Ikki tomonlama hamkorlik aloqalarning ikkinchi bosqichiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, eng avvalo shuni ta'kidlash joizki, 2017 yildan boshlab O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida zamon talabidan kelib chiqqan holda, puxta o'ylangan amaliy tashqi siyosat yuritib kelmoqda. Bu albatta, Yevropa Ittifoqi bilan bo'lgan hamkorlik aloqalariga ham ijobiy ta'sir etmoqda. Prezident Shavkat

Mirziyoyev faoliyatining dastlabki yillaridanoq O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surdi. Bu maqsadni O'zbekiston Prezidenti 2017 yil 9 iyun kuni Ostonada bo'lib o'tgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti sammitidagi ishtiroki doirasida Ispaniya Qiroli Filip VI bilan uchrashuvi, 2018 yil oktyabrda Fransiyaga tashriflari doirasida bildirib o'tgan edi[5].

Ikki tomonlama munosabatlarning tez fursatlarda yangi pog'onalariga ko'tarilishida rasmiy tashriflarni o'rni va ahamiyati juda kattadir. Shunday muhim tashriflardan biri, Markaziy Osiyo bo'yicha Yevropa Ittifoqining maxsus vakili Peter Burian tomonidan 2017 yil aprel oyida mamlakatimizga amalga oshirildi. Tashrif davomida Peter Burian Yevropa Ittifoqi 2017 - 2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishini qo'llab-quvvatlashga tayyorligini ma'lum qildi[6]. Uning ta'kidlashicha, O'zbekistondagi islohotlar nafaqat Yevropa Ittifoqi, ayni paytda qo'shni davlatlar bilan ham hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ikki tomonlama hamkorlik aloqalarining rivojlanishida O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevni 2019 yil 20-22 yanvar kunlari Germaniyaga rasmiy tashrifi munosabatlar tarixida yangi davrni ochdi[7]. Tashrif doirasida Federal kansler A.Merkel va Federal Prezident F.V.Shtaynmayer va Bundestag raisi V.Shoyble bilan uchrashuvlar o'tkazildi[8]. Bo'lib o'tgan muloqot doirasida o'tgan chorak asrda erishilgan yutuqlar tahlil etilib, istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni izchil rivojlantirish va Yevropa Ittifoqi hamda O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish borasida hamkorlikni kengaytirishning aniq yo'nalishlari belgilab olindi. Agar Germaniyaning Yevropa Ittifoqida eng ta'siri kuchli davlat ekanligiga e'tibor qaratilsa, O'zbekiston uchun bu tashrif naqadar ahamiyatli bo'lganligini anglash qiyin emas. O'z navbatida Markaziy Osiyoda eng ta'sirli davlat O'zbekiston bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishdan Germaniya hukumati ham juda manfaatdor ekanligini 2019 yilning 27-29 may kunlari Germaniya Federal Prezidenti F.V.Shtaynmayeri javob tashrifida ham ko'rish mumkin[9]. Uchrashuvlarda Parlamentlararo aloqalar, huquq va xavfsizlik sohaslarida, mudofaa vazirliklari yo'nalishi bo'yicha hamkorlik faol rivojlanayotgani qayd etildi.

Germaniya Federal Prezidenti F.V.Shtaynmayer muzokaralar va hamkorlik haqida fikr bildirar ekan, jumladan – “Biz faqat mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar emas, balki Yevropa Ittifoqi doirasidagi sheriklik masalalarini ham atroflicha muhokama qilish imkoniga ega bo'ldik. Bugungi tashrif O'zbekistondagi yangi siyosatni to'liq qo'llab-quvvatlashimizning ifodasidir” [10]. - deya alohida ta'kidladi.

O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqishda 2021 yil 29–30 mart kunlari Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning O'zbekistonga tashrifi hamda 2022 yil 4–5 oktyabr kunlari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga rasmiy tashrifi muhim omillardan biri bo'ldi. Ekspertlarning baholashicha, Toshkent va Budapeshtda bo'lib o'tgan oliy darajadagi O'zbekiston – Vengriya sammitlari o'z ahamiyati va muvaffaqiyatli natijalari bilan tarixiy voqeadir. Ikki davlat rahbarlarining muzokaralari to'la qamrovli davlatlararo muloqotni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. 2021 yildagi uchrashuvlarda Strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklarasiya imzolangan bo'lsa, 2022 yilda hamkorlik aloqalarini sifat va qamrovini mutlaq yangi bosqichga ko'tarish borasida kelishuvlarga erishildi[11]. Shu tariqa Vengriya Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorlikni siyosiy jihatdan eng yuqori darajaga olib chiqqan birinchi mamlakat bo'ldi[12].

Oxirgi yillarda ikki tomonlama munosabatlarning rivojlantirishga xizmat qiluvchi huquqiy me'yoriy hujjatlar, yangi shartnoma, bitim va yo'l xaritalari ham qabul qilindi, bular bevosita o'zaro hamkorlik suratiga ijobiy ta'sir etmoqda. Masalan, 2017 yil fevral oyida Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasida qayta tiklanadigan energiya sohasida hamkorlik bo'yicha anglashuv memorandumini imzolandi[13]. Harakatlar strategiyasining beshinchi yo'nalishi talablaridan kelib chiqib, Yevropa Ittifoqi va 21 ta xorijiy mamlakat bilan savdo-iqtisodiy, investitsiya, texnologiya va moliya-texnik sohalarda 22 ta “yo'l xarita”si tasdiqlandi[15]. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar rivojlanishiga “Sheriklik va hamkorlik” to'g'risidagi bitimga 2017 yil 1 iyul kuni “To'qimachilik bayonnomasi”ni ham qo'shilgani

iqtisodiy aloqalar ko'lamini yanada rivojlantirishda muhim omil bo'ldi, deyish mumkin[16]. Bu esa o'z navbatida ikki sub'ekt o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, iqtisodiy hamkorlik salohiyatini kengaytirish va ro'yobga chiqarishda yangi istiqbollar ochadi.

Bundan tashqari O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi munosabatlarida parlamentlararo muloqotni yo'lga qo'yilganligi va buni o'zaro tashriflar davomida mustahkamlanib borayotganligi quvonarli holdir. Ana shunday muloqotlardan biri 2018 yil 23 mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Yevropa Ittifoqining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari bo'yicha Kengashi ishchi guruhi rahbari Yutta Edtxofer boshchiligidagi delegatsiya a'zolari bilan tashkil etildi[17]. Mazkur ishchi guruh Yevropa Ittifoqining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari bilan ikki tomonlama hamda mintaqalararo munosabatlarni barcha jabhasini ko'rib chiqishga mas'ul bo'lgan ekspertlik organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishda davlat rahbarlarining rasmiy tashriflarini o'rni nihoyatda kattadir. Jumladan, "O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi" hamkorlik kengashi va qo'mitasining muntazam majlislari, parlamentlararo almashinuvlarning rivojlanayotgani, Yevropa Ittifoqining Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili Federika Mogerini va boshqa oliy martabali vakillarining mamlakatimizga tashriflari keyingi yillarda o'zaro faollashganini ko'rsatmoqda.

O'zaro aloqalar dinamikasi va sifatini ortib borayotganligini 2019 yil may va 2022 yil oktyabr oylarida O'zbekistonga tashrif buyurgan Yevropa kengashi Prezidentlari Donald Tusk va Sharl Mishellarning tashrifida ham ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev D.Tusknini qabul qilar ekan, Yevropa Ittifoqi bilan konstruktiv siyosiy muloqot hamda savdo-iqtisodiy, innovatsion, ilmiy-texnik va madaniy gumanitar sohalarida samarali amaliy hamkorlik rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi[17]. O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 25 yil to'ladigan 2019 yilda Yevropa kengashi Prezidentining mamlakatimizga ilk tashrifi ko'p qirrali sheriklikni kengaytirish va mustahkamlashdan ikki tomon ham manfaatdor ekani va bunga intilayotganidan dalolat beradi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan munosabatlar qayta yo'lga qo'yildi va kengaymoqda, mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida Yevropa investitsiya banki ishtirokida dastlabki qo'shma loyihalar amalga oshirila boshlandi. Darhaqiqat, Yevropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlarning O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorligi Markaziy Osiyo integrasiyasida, shuningdek, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda, o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy sohalaridagi rishtalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

4. Xulosalar:

Xulosa qilib aytganda, Yevropa Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar so'nggi yillarda barqaror va izchil rivojlanib borayotgan strategik hamkorlik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yevropa Ittifoqining integratsiyaviy tajribasi, iqtisodiy salohiyati va «normativ kuch» sifatidagi tashqi siyosiy ta'siri O'zbekiston uchun institutsional islohotlar, iqtisodiy modernizatsiya hamda xalqaro standartlarni joriy etish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning ochiq tashqi siyosat strategiyasi doirasida Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, energetik, ekologik va ta'lim sohalarida yanada kengayib bormoqda. Ayniqsa, yashil energetika, raqamli iqtisodiyot va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlaridagi qo'shma tashabbuslar mamlakatning mintaqaviy va global integratsiya jarayonlaridagi o'rnini mustahkamlamoqda. Shuningdek, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga oid strategiyalari va Global Gateway tashabbusi O'zbekiston bilan hamkorlikni yangi sifat bosqichiga olib chiqib, uzoq muddatli investitsiyaviy va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Demak, Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar kelgusida ham o'zaro manfaatdorlik, barqaror rivojlanish va strategik sheriklik tamoyillari asosida yanada chuqurlashib borishi tabiiy jarayondir.

Иқтибослар/ Сноски/References:

- [1]. Paramonov V., Stokov A., Alschen S., Abduganieva Z. European Union impact on Central Asia: Political, economic, security and social spheres. 2018 by Nova Science Publishers, New York. – P. 25-46.
- [2]. Рахимов М., Алимова Д. История становления и развития сотрудничества Республики Узбекистан с международными организациями. Институт истории АН РУз. – Ташкент, 2011 – С. 31-35. (Rakhimov M., D. Alimova. History of the formation and development of cooperation of the Republic of Uzbekistan with international organizations. Institute of History, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent, 2011 – pp. 31–35.)
- [3]. Нуриддинов Э.З. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан // Монография / - Тошкент: “Инновация-Зиё”, 2021, – С. 66. (Nuriddinov E.Z. Formation and further development at the stage of renewal of the country of the non-political activity of the Republic of Uzbekistan // Monograph / – Tashkent: “Innovation-Ziyo”, 2021, – p. 66.)
- [4]. Махсумов С. Президент Шавкат Мирзиёев раҳбарлигида Ўзбекистон ташқи сиёсатида юксалиш рўй бермоқда // Халқ сўзи. – 2019. – 29 январь. (Makhsumov S. Under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev, an upsurge is taking place in the foreign policy of Uzbekistan // Xalq so‘zi. – 2019. – January 29.)
- [5]. Хидиров К. Ўзбекистон ва Европа Иттифоқи ўртасидаги ҳамкорлик алоқалари кенгаймоқда // Халқ сўзи. – 2017. – 23 июнь. (Khidirov K. Cooperation relations between Uzbekistan and the European Union are expanding // People’s Word. – 2017. – June 23.)
- [6]. Гюнтер Оверфельд. Муносабатларнинг янги конструктив даражаси // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент, 2021. – № 2. – Б. 23. (Günter Overfeld. A new constructive level of relations // Uzbekistan Economic Bulletin. – Tashkent, 2021. – No. 2. – p. 23.)
- [7]. Кудратов Л. Ўзбекистон-Германия ҳамкорлигининг янги босқичи // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент, 2021. – № 2. – Б. 12. (Kudratov L. A new stage of Uzbekistan–Germany cooperation // Uzbekistan Economic Bulletin. – Tashkent, 2021. – No. 2. – p. 12.)
- [8]. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Т. 3. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б.317-319. (Mirziyoyev Sh.M. A noble people’s intentions are great, and their life is bright and their future is prosperous. Vol. 3. – Tashkent: “Uzbekistan” NMIU, 2019. – pp. 317–319.)
- [9]. Ўзбекистон ва Германия – ишончли, муҳим ва узок муддатли ҳамкорлар // Халқ сўзи. – 2019. – 29 май. (Uzbekistan and Germany – reliable, important and long-term partners // People’s Word. – 2019. – May 29.)
- [10]. Ўзбекистон – Венгрия: ўзаро манфаатли ҳамкорлик кўламини кенгайтириш йўлида // Янги Ўзбекистон. – 2022. – 4 октябрь. (Uzbekistan – Hungary: on the path of expanding mutually beneficial cooperation // New Uzbekistan. – 2022. – October 4.)
- [11]. Элчи Абат Файзуллаев: Будапештда бўлиб ўтадиган олий даражадаги Ўзбекистон – Венгрия музокаралари мамлакатларимиз ўртасидаги узок муддатли стратегик шериклик ривожига замин яратади // Янги Ўзбекистон. – 2022. – 4 октябрь. (Ambassador Abat Fayzullaev: The high-level Uzbekistan–Hungary talks to be held in Budapest will lay the foundation for the development of long-term strategic partnership between our countries // New Uzbekistan. – 2022. – October 4.)
- [12]. Хидиров К. Ўзбекистон ва Европа Иттифоқи ўртасидаги ҳамкорлик алоқалари кенгаймоқда // Халқ сўзи. – 2017. – 23 июнь. (Khidirov K. Cooperation Relations Between Uzbekistan and the European Union Are Expanding // People’s Word. – 2017. – 23 June.)
- [13]. Ҳаракатлар стратегияси рақамларда // Халқ сўзи. – 2017. – 30 август. (Action Strategy in Numbers // Xalq So‘zi. – 2017. – 30 August.)

[14]. Ўзбекистон ва Болгария президентлари бир-бирларини кутладилар // Халқ сўзи. – 2017. – 14 сентябрь. (The Presidents of Uzbekistan and Bulgaria Congratulated Each Other // People's Word. – 2017. – 14 September.)

[15]. Хидиров Қ. Ўзбекистон – Европа иттифоқи: манфаатли алоқаларнинг мустаҳкам асоси // Халқ сўзи. – 2018. – 24 май. (Khidirov Q. Uzbekistan – European Union: A Solid Foundation for Mutually Beneficial Relations // People's Word. – 2018. – 24 May.)

[16]. Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги (ЎЗР ТИВ) жорий архиви. Ўзбекистон ва Европа Иттифоқи ўртасидаги ҳамкорликни ўрнатилишига оид маълумотлар. – Б. 2. (Current Archive of the Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan (MFA of the Republic of Uzbekistan). Information on the Establishment of Cooperation Between Uzbekistan and the European Union. – P. 2.)

[17]. Ўзбекистон Президенти Европа кенгаши Президентини қабул қилди // Халқ сўзи. – 2019. – 1 июнь. (The President of Uzbekistan Received the President of the European Council // People's Word. – 2019. – 1 June.)

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000